

Qoraqalpog‘iston Respublikasida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qoraqalpog‘iston Respublikasi kichik tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma‘lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

I. Qoraqalpog‘iston Respublikasi kichik tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma‘lumot

2025- yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 17 876 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma‘lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta‘minlash maqsadida Soliq qo‘mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxslar haqidagi ma‘lumotlar bazalari to‘liq xatlovdan o‘tkazildi va aniqlangan farqlar birxillashtirilgan ma‘lumotlar.

Shahar va tumanlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024- yil 1- aprel holatiga, birlik	2025-yil 1- aprel holatiga, birlik
Amudaryo	1820	1503
Beruniy	1744	1627
Bo‘zatov	321	298
Qorao‘zak	618	404
Kegeyli	663	551
Qo‘ng‘irot	1291	1025
Qonliko‘l	561	485
Mo‘ynoq	595	436
Nukus	805	687
Taxiatosh	643	544
Taxtako‘pir	419	252
To‘rtko‘l	2317	2021
Xo‘jayli	1110	929
Chimboy	936	757
Shumanay	440	358
Ellikqal’a	1515	1206
Nukus sh.	5477	4793

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni



Iqtisodiy faoliyat turlari

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni](#)

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-martida 773 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 264 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 187 ta, sanoatda 78 ta hamda boshqa xizmatlarda 72 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



Shahar va tumanlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024- yil yanvar-mart oylarida, birlik	2025-yil yanvar-mart oylarida, birlik
Amudaryo	79	52
Beruniy	73	82
Bo‘zatov	9	17
Qorao‘zak	18	20
Kegeyli	22	19
Qo‘ng‘irot	46	48
Qonliko‘l	24	23
Mo‘ynoq	26	21
Nukus	36	25
Taxiatosh	29	21
Taxtako‘pir	26	9
To‘rtko‘l	108	57

Xo'jayli	42	48
Chimboy	31	25
Shumanay	34	33
Ellikqal'a	60	55
Nukus sh.	268	218

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(oylik\)](#)


[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(yillik\)](#)

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-martida YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 59,5 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 56,8 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YalMdagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 408,6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi, ya'ni sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 38,2 % ini tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Bo'zatov tumani (100,0 %), Beruniy tumani (91,4 %), Taxtako'pir tumani (78,1 %), Ellikqal'a tumani (74,7 %) va Xo'jayli tumani (72,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\)dagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 1 605,3 mlrd so'mni, ya'ni qurilish ishlari umumiy hajmining 91,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 105,5 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Xo'jayli tumani (99,3 %), Nukus sh. (99,1 %) va Nukus tumani (98,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati](#)

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2 546,1 mlrd so'mni, ya'ni umumiy hajmidagi ulushi 45,8 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 158,1 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Shumanay tumani (97,9%), Taxtako'pir tumani (94,6 %), Kegeyli tumani (90,8 %) va To'rtko'l tumani (87,9%) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 1 651,8 mlrd so'mni, ya'ni umumiy hajmidagi ulushi 94,9 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 103,6 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Kegeyli tumani (99,7 %), Xo'jayli tumani (99,4 %), Ellikqal'a tumani (99,0 %) va Shumanay tumani (99,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarish hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarishdagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 2 903,5 mlrd so'mni, ya'ni umumiy hajmining 97,0% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 107,3 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Qonliko'l tumani (99,9 %), Taxtakopir tumani (99,8 %), Nukus tumani (99,8 %) va Qorao'zak tumani (99,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 5 022,8 milliard so'mni, ya'ni umumiy hajmining 72,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 109,5 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Mo'ynoq tumani (77,3 %), Taxtakopir tumani (73,0 %), Qorao'zak tumani (72,7 %), Xo'jayli tumani (71,8 %) va Nukus tumani (70,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 21 177,7 ming AQSH dollarini, ya'ni umumiy eksport hajmining 24,6 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-martida Shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Ellikqal'a, Shumanay, Chimboy, Xo'jayli, To'rtko'l va Taxtakopir tumanlarida – 100,0 %, ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksporti hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksportidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 44 511,5 ming AQSH dollarini, ya‘ni jami importning 73,3 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-martida Shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Ellikqal’a, Shumanay, Chimboy, Xo‘jayli va To‘rtko‘l tumanlarida – 100,0 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importi hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importidagi ulushi \(choraklik\)](#)

IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 91,4 % ni tashkil etdi. 2024- yilning ushbu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,3 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 90,6 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-,yilning ushbu davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,0 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 93,2 % ni tashkil etib, 2024- yilning ushbu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,3 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-martida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,3 % ni tashkil etib, 2024- yilning ushbu davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi tashish hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari


Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-martida 38,4% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida esa 39,0 % ga etgan yoki 2021- yilning yanvar-martida nisbatan 0,6 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-martida 51,2 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida 51,3 % ni tashkil qildi.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-martida 10,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-martida kelib, bu ko'rsatkich 9,7 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-martida 59,0 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida 44,9 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-martida 35,4 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida 51,6 % yoki 16,2 birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-martida 5,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-martida kelib, bu ko'rsatkich 3,5 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – 43,4 % ni, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 40,8 % ni va xizmatlar sohasida – 38,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 52,6 % ni, savdo – 51,9 % ni va sanoatda – 51,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda – 14,5 %, xizmatlar sohasida – 11,2 % ni va savdo – 9,9 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoglar-bo-yicha-ulushi.pdf>

